



“Tasdiqlayman”
SamDU o‘qituv ishlari bo‘yicha prorektor:
A.S.Soleev
30.08.2021 –yil

60311000 – SOTSILOGIYA TA’LIM YO‘NALISHINING FANLAR KATALOGI

№	Fanning kodi	Fanning nomi	Fanning qisqacha tavsifi	Kredit miqdori	Semestr	Professor-o‘qituvchilar: F.I.Sh., ilmiy unvoni va darajasi
Majburiy fanlar						
1.01	MATM1005	Matematika	Bilishning matematik usullari, murakkab iqtisodiy tizimlar va jarayonlarni modellashtirish tamoyillari, informatika hamda axborot to‘plash, ularni qayta ishlash va uzatish usullarining jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati haqida oliy darajadagi tasavvurlarni shakllantirishi	5	2	dots. S.Xoliqulov
1.02	ITM1005	Axborot texnologiyalari	Talabalarni mutaxassislik bo‘yicha ixtisoslashtirilgan dasturiy vositalar fanining asosiy elementlari bilan tanishtirish: asosiy tushunchalar, ixtisoslashtirilgan dasturiy vositalarning mohiyati va ularning dasturiy ta‘minotini o‘rganishdan iborat. Fanda pedagogik dasturiy vositalar, masofaviy ta‘lim mexanizmlari, Scopus va WoS ma‘lumotlar bazasidan foydalanish qarab o‘tiladi.	5	1	PhD. A.Suyarov
1.03	RGM1005	Yosh davri fiziologiyasi va gigienasi	orqa miya va bosh miya funksiyalarini o‘rganish va bir-biridan farqlash, shartsiz reflekslar, instinktlar, bosh miya po‘stlog‘ida kuzatiladigan tormozlanish jarayonlarini o‘rganish va foydalanish, aktiv va passiv uyquni o‘rganish va bir-biridan farqlashni o‘rganish uslublaridan foydalanish, oliy asab faoliyatiga turli omillarning ta‘sirida o‘zgarishini o‘rganish uslublaridan foydalanishi; yurak-qon tomirlarining fiziologik faoliyatini yoshga oid o‘zgarishlarini tadqiqot qilish usullarini: arterial qonbosimni aniqlash, unga tavsif berish va amalda foydalanish, har tomonlama taraqqiy etgan shaxsni tarbiyalash jarayonida sog‘lom turmush tarzi, gigiena me‘yorlari, sog‘lom organizmni ta‘minlashda ovqatlanish kun rejimini tashkil etish	5	1	dots. B.Bozorov
1.04	ISPM2006	Mutaxassislikka kirish	Fanni o‘qitishdan maqsad -talabalarda mutaxassislik to‘g‘risida ma‘lumotlarga ega bo‘lishi, fanning mazmun mohiyati, o‘ziga xosligi, ijtimoiy ishning etik me‘yorlari,	10	1,2	dots. I.Negmatov

			ijtimoiy ishda tadqiqot metodlari, ijtimoiy ishda antidiskriminatsion amaliyotni ko'rsata bilish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat. Fanning vazifasi - sotsiologik ta'limning muhim funktsiyalaridan biri - bu jamiyat a'zolarida sotsial muammolarni tushunish, ularning kelib chiqish manbalarini aniqlash va bartaraf etish yo'llari hamda imkoniyatlarini qidirib topish ko'nimalarini shakllantirishdan iboratdir.			
1.05	HUM1004	O'zbekistonning yangi tarixi	O'zbekiston Respublikasining yangi tarixiga oid nazariy qarashlarni va amaliy ko'nikmalarni o'rgatishdan iboratdir.	2	2	PhD. Narmanov F.
1.06	PHM1006	Falsafa	Yoshlarni zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan falsafiy-huquqiy bilimlar bilimlar qurollantirish hamda ularda o'z-o'zini anglash va to'g'ri fikirlash mahorati, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.	6	3	Dots. I.Shermanov
1.07	LU(R)M1006	O'zbek (rus) tili	Talabalarning o'zbek tilidan olgan bilimlarini yanada boyitish, o'z fikr mulohazalarini og'zaki va yozma ravishda erkim bayon eta olishlariga erishish. Fan va ta'lim integratsiyasi mazmun mjhiyatidan kelib chiqqan holda innovatsiyalarni ta'lim tizimiga keng jalb etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimidan keng foydalanish.	5	1,2	O'qit. Hamrayeva D. O'qit. Ro'zmanova R
1.08	LFM1008	Xorijiy til	Talabalarni chet tilini faol egallashga o'rgatish, ya'ni dastur asosida berilgan mavzular bo'yicha o'z fuqr mulohazalarni chet tilida bayon eta olish hamda shu tilda bilidirilgan fikrlarni anglashdan iborat.	8	1,2,3,4	O'qit. Qurbonov U. O'qit. Saidova G. O'qit. Azimova Z. Anarbayeva F., Mardiyev B
1.09	AULM1003	O'zbek tilini sohada qo'llanilishi	O'qitish metodologiyasining bir qismi sifatida talabalarning bilim va kunikmalarini, shuningdek o'qituvchi va talaba ishining ilmiy tashkiloti bo'yicha maxsus o'quv faoliyatini tashkil etish masalalari ko'rib chiqiladi.	1	2	G'. Do'stmurodov
1.10	PESM1004	Jismoniy tarbiya va sport	Talabalarni jismoniy tarbiyaning amaliy va nazariy asoslarini egallash hamda amaliy mashg'ulotlar orqali talabalarda sog'lom hayot tarzini rag'batlantirishdan iborat.	4	1,2	D.Isayev
1.11	SDETM2007	Sharq mutafakkirlarining sosiologik ta'limoti	Markaziy Osiyo hududida ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy ta'limotlarning shakllanishi. Zaroztrizmning vujudga kelishi va uning bosh yozuv manbaasi Avesta. Markaziy Osiyo hududida buddizmning tarqalishi. Buddizmning	6	7	dots. M.B.Sherov

			asosiy g'oyalarini sotsial ahamiyati. Islom dinning shakllanishi va rivojlanishi. Markaziy Osiyo hududida sufizmning vujudga kelishi va tarqalishi. Sufizmning g'oyaviy, gnoseologik ildizlari, asosiy maktablari va yo'nalishlari. X-XI asrlarda SHarqda ijtimoiy-siyosiy qarashlarning rivojlanishi.			
1.12	HSM20011	Sotsiologiya tarixi	Sotsiologiya tarixi kursining ob'ekti va predmeti. XIX asrning birinchi yarmida sotsiologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishining tarixiy shart-sharoitlari. Qiyosiy metodlar va empirik sotsial tadqiqotlarning rivojlanishi. Sen-Simonning «Sotsial fiziologiya»si. Kont va pozitiv sotsiologiyaning shakllanishi. Kontning sotsial dinamika va sotsial statika haqidagi ta'limoti. Spenser va uning tarixiy-evolyusion sotsiologik tizimi. Jamiyatni organizm sifatida tushunish. Spenser nazariyasining metodologik muammolari. Sotsiologiyadagi pozitivistik-naturalistik maktablar. Tarix va etnografiyadan faktik ma'lumotlarni o'zlashtirilishi. Asosiy yo'nalishlar va maktablar: mexanistik, sotsial-darvinistik, bioorganik, irqiy-antropologik, geografik va h.z.	11	1,2	dots. M.B.Sherov
1.13	MSTM2008	Zamonaviy sotsiologik nazariyalar	Psixologik sotsiologiya va uning yo'nalishlari. F. Tyonnisning sotsiologik sistemasi. G. Zimmelning sotsiologik nazariyasi. M. Veberning sotsiologik konsepsiyasi va uning ratsionalistik ta'limoti. V. Paretoning sotsiologik sistemasi. E. Dyurkgeymning sotsiologik nazariyasi. Neopozitivizmning shakllanishi. F. Znanetskiyning sotsiologik qarashlari. T.Parsonsnig tizimlar nazariyasi. R.Mertonning sotsiologik konsepsiyasi P.Sorokinning tahliliy nazariyasi. Psixoanaliz sotsiologiyadagi yo'naliy sifatida. Z.Freyd va uning sotsial doktrinasi. Fenomenologik sotsiologiya va uning asosiy yo'nalishlari. Ramziy interaksionizm sotsiologiyasi. Sotsiologiyadagi ekzistensializm yo'nalishi. Frankfurt maktabining "tanqidiy" sotsiologiyasi.	9	3,4	dots. G.Tagiyeva
1.14	SYOM2009	Yoshlar sosiologiyasi	YOshlar sotsiologiyasi fanining ob'ekti va predmeti. YOshlar alohida ijtimoiy guruh sifatida. YOshlar sotsiologiyasining sotsiologiya fani tizimidagi o'rni. Davlatning yoshlarga yo'naltirilgan siyosati: mazmun va	9	3,4	dots. G.Tagiyeva

			<p>mohiyat. YOshlar siyosatining tamoyillari. YOshlar siyosatining mintaqaviy xususiyatlari. YOshlar va iqtisod. YOshlarning mehnatga yo'naltirilgan orientatsiyalari. Mehnat bozori va yoshlar. YOshlarning siyosiy ijtimoiylashuvi. Siyosiy madaniyat va yoshlar tafakkuri. YOshlarning siyosiy manfaatlari. Hokimiyat organi strukturasi yoshlarning maqomi. Qonunchilik va ijroi hokimiyatda yoshlarning vakillik darajasi. Talabalar yoshlarning alohida guruhi sifatida. Talaba yoshlarning asosiy manfaatlari va extiyojlari. Deviant hulq-atvor va yoshlarning sotsial kayfiyatlari. YOshlar tafakkuriga diniy qadriyatlar ta'siri. YOshlar madaniyati. YOshlar va oilaviy munosabatlar. YOshlar va nikoh. Jamiyat sotsial strukturasi yoshlar guruhining o'rni.</p>			
1.15	SAM2009	Ijtimoiy antropologiya	<p>O'quv fanining maqsadi: "Ijtimoiy antropologiya" ta'lim yo'nalishida tahsil oluvchi talabalarning kasbiy salohiyatini ta'minlovchi fanning nazariy asoslari bo'yicha bilimni oshirish, kelgusi amaliy faoliyatda sotsiolog olimlar tajribalari asosida ish yuritish bo'yicha tasavvur hamda ongli munosabat shakliantiri ishini ta'minlashdan iborat.</p>	10	3,4	dots. R.K.Yusupov
1.16	SPM3007	Shaxs sosiologiyasi	<p>SHaxs va jamiyat o'zaro munosabatlari. SHaxs sotsializatsiyasi. Sotsial guruhlar va individlarning o'zaro munosabatlari va aloqalari. Sotsial harakat, sotsial birdamlik, kooperatsiya sotsial munosabatlarning mexanizmi sifatida.</p>	8	5,6	dots. I.Negmatov
1.17	SCUM2004	Madaniyat sosiologiyasi	<p>Madaniyat sotsiologiyasining madaniyat nazariyasi bilan umumiyli va xususiyli. Xalqlarning madaniyatidagi farqlar. Madaniyatning ijtimoiy hayotdagi o'rni. Madaniyatni sotsiologik jihatlarida tushunish. Madaniyat sotsiologiyasining shakllanish tarixi va bosqichlari. Madaniyat tarqqiyotining markazlari va asosiy davrlari. Madaniyat sotsiologiyasining metodologik masalalari. Madaniyat falsafasi. Madaniy antropologiya. Sotsiologiyada madaniyatga berilgan ta'riflar va asosiy yondoshuvlar. Madaniyat va hulq-atvor regulyasiyasi me'yorlari. Marosimlar, ramzlar va afsonalar. Madaniyat shakllari va ijtimoiy-madaniy taraqqiyot. Madaniyat va islohotlar. Madaniyat va sotsial</p>	4	4	O'qit. M.U.Tangirova

			struktura. Madaniyat va shaxs. O'zbek milliy madaniyatining jahon sivilizatsiyasi rivojida o'z o'rnini. O'zbek milliy an'analari va ularning milliy o'zlikni anglashdagi ahamiyati. O'zbekistonda madaniyat sotsiologiyasi rivojining istiqbollari.			
1.18	SCOM3008	Konflikt sosiologiyasi	Konfliktologiya - sotsiologik bilimning maxsus va muhim yo'nalishi. Konfliktning umumiy nazariyasi. Konflikt paradigmasining shakllanishi va rivojlanishining tarixi. Konflikt tushunchasi: mazmun va mohiyat. Konflikt va ijtimoiy hayot. Sotsial struktura muammolari sotsial konfliktlarning asosiy manbaasi sifatida. Konflikt manfaatlar, fikrlar, qarashlarning qarama-qarashi holatining to'qnashuvi. Konflikt turlari: siyosiy, sotsial, iqtisodiy, mafkuraviy, psixologik va h.z. Sotsial konfliktlar, ular mohiyati va mazmuni. Yirik sotsial guruhlar konfliktlarning asosiy sub'ekti sifatida. Sotsial konfliktlarning sabablari, funksiyalari va sub'ektlari. Sotsial konfliktlar dinamikasi. Ommaviy harakatlar. Zamonaviy jamiyatlarda sotsial konfliktlarning mavjud bo'lishining turlari va shakllari. Konflikt va konsensus. Konfliktlardan ogohlantirish va ularni bartaraf qilish metodlari. Sotsial konfliktlarni bartaraf qilish genezisi i mexanizmi.	7	7,8	dots. M.B.Sherov
1.19	SSEM3008	Fan va ta'lim sosiologiyasi	Fan sotsiologiyasining sotsiologik bilim tizimida o'z o'rnini. Fan sotsiologiyasining umumiy va xususiy tomonlari, shakllanish va taraqqiyotining asosiy davrlari. Fan sotsial institut sifatida. Jahon sivilizatsiyasida fan institutining roli. Fan sotsiologiyasini asosiy xususiyatlari. Fan sotsiologiyasining asosiy paradigmalari. Fan sotsiologiyasi tadqiqotlarining metodlari. Fan taraqqiyotining sotsial, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy asoslari. Fanning sotsial funksiyalari. Fan va ilmiy-texnikaviy taraqqiyot. Fanning jamiyatda islohotlarning olib borishdagi roli. O'tish davri sharoitlarida ilmiy tadqiqotlarning holati. Fan sotsial-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy taraqqiyotning bosh omili. Ilmiy sohada kadrlar qo'nimsizligini bartaraf qilish muammolari.	7	5,6	O'qit. M.U.Tangirova
1.20	SLM3006	Mehnat va bandlik	Mehnat sotsiologiyasi ob'ekti va predmeti. Mehnat	6	8	dots. G.Tagiyeva

		sosiologiyasi	sotsiologiyasi strukturasi va funksiyalari. Mehnat sotsiologiyasining asosiy kategoriyalari. Tashkilot mehnat sotsiologiyasining ob'ekti. Mehnatning ijtimoiy mohiyati va uning asosiy tavsifi. Mehnat faoliyati va boshqa ijtimoiy jarayonlar. Bandlik va uni amalga oshirishning asosiy omillari. Bandlikning sermaxsul darajasida amalga oshirish mehnat sotsiologiyasining dolzarb muammolari sifatida. Bandlikning ijtimoiy shakllari va ularni yangi iqtisodiy sharoitlarda takomillashtirish yo'llari. Mehnat sohasida ma'naviy qadriyatlarining roli. Iqtisodiy tafakkur va mehnat jarayonlari. Mehnat unumdorligi va qo'nimsizlik ziddiyatlari. Mehnat jamoasida sotsial adolat tamoyillarni tadbiq etish mexanizmlari. Korxonalarda adaptatsion jarayonlar xususiyatlari.			
1.21	SOM3007	Tashkilot sosiologiyasi	Tashkilot sotsiologiyasi sotsiologik nazariyaning maxsus yo'nalishi. Uning ob'ekti, predmet va vazifalari. Sotsial tashkilotlar nazariyasi shakllanishi va rivojining asosiy davrlari. Tashkilot sotsiologiyasi metodologiyasi. Tashkilot sotsiologiyasining strukturasi. Sotsial tizim va sotsial tashkilot. Sotsial guruhlar va sotsial institutlar. Tashkilot tizim sifatida. Tashkilot va boshqaruv. Tashkilot va shaxs. Tashkilotlardagi konfliktlar va ularni bartaraf qilish mexanizmlari. Tashkilotga rahbarlik qilish turlari. Boshqaruv elitasi. Hokimiyat mohiyati, turlari va strukturasi. Byurokratiya va uning tavsifi. Tashkilot tasnifi. Tashkilot sotsiologiyasining asosiy tamoyillari. Tashkilot faoliyati sermaxsulligining asosiy mezonlari. Tashkilotlardagi o'z-o'zini boshqaruv tizimlari. Kasaba uyushmalari va ularning tashkilot ma'muriyati bilan o'zaro munosabatlari. Tashkilot sotsiologiyasi muammolarining empirik tadqiqotlar metodi yordamida tadqiq etish xususiyatlari.	7	6,7	dots. M.Notmamatova
1.22	MOCSR30016	Sosiologik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish metodlari	Empirik sotsiologik tadqiqot tushunchasi va uning ob'ekti va predmeti. Empirik sotsiologik tadqiqot sotsial faoliyat turi sifatida. Sotsiologik tadqiqot texnikasi va protsedurasi. Empirik sotsiologik tadqiqot dasturi va uni tashkil etuvchi qismlar. Sotsiologik tadqiqot muammosining shakllantirilishi va asoslanishi. Tadqiqotning ob'ekti va predmetini aniqlash. Asosiy va qo'shimcha ob'ektlar. Sotsiologik tadqiqotning ilmiy	16	5,6,7,8	O'qit. O.E.Navro'zov

			gipotezasi. Tadqiq etilayotgan to'plamni aniqlash. Sotsial hodisalarni o'lchash tizimi. Saralashning turlari va metodlari.			
1.23	FGSM3008	Oila va gender sosiologiyasi	Oila sosiologiyasi va uni sotsiologik bilim tizimidagi ahamiyati. Oila sosiologiyasining predmet va ob'ekti. Oila va jamiyat. Oila va jamiyat o'zaro munosabatlari. Oila jamiyatning ilk bo'g'ini sifatida. Oila va uning vazifalari. Oilaning mintaqaviy xususiyatlari. Oddiy va murakkab oila. Oilaning demografik tarkibi. Oila shakllanishining sotsial-demografik omillari. Jamiyat sotsial strukturasi oila ko'rinishlari. Milliy va internatsional oila. Aholi yoshining oila shakllanishiga ta'siri. Oila va nikoh. Oila va an'nalar. Oilaning nuklearlashish sabablari. Oilaning demografik funksiyalari. Oilaning ijtimoiy funksiyalari. Oilaning reproduktiv funksiyasi. Oilaning dolzarb sotsial-iqtisodiy muammolari. Oila istiqbollari. Oila istiqbollarini tadqiq etishning metodlari. O'zbekistonda oila institutining muammolari va istiqbollari.	8	7,8	dots. G.Tagiyeva
1.24	SPSY2005	Ijtimoiy psixologiya	Fanni o'qitishdan maqsad - Sotsial psixologiyaning predmeti, ijtimoiy psixologik qarashning rivojlanish tarixi, fanning metodologiyasi va metodlari, ijtimoiy psixologiyaning asosiy yo'nalishlari, ijtimoiy psixologiyada shaxs muammosi, muloqot va guruhlar muammosi, olomon psixologiyasi, guruh sharoitida zamonaviy o'qitishning pedagogik va psixologik texnologiyalari, shaxsning ijtimoiyizatsiyasi, ijtimoiy ustanovka, boshqamv muammosi, ijtimoiy psixologiyaning tadbqiqiy sohalarini o'rganishdan iborat	4	1	PhD. O.S.Qodirov
1.25	SPOM3009	Jamoatchilik fikri sosiologiyasi	Jamoatchilik fikri sosiologiyasi ob'ekti i predmeti. Jamoatchilik fikri sosiologiyasining sotsiologik bilim tizimidagi o'rni va ahamiyati. Jamoatchilik fikri sosiologiyasi strukturasi va mazmuni. Jamoatchilik fikri va uning vazifalari. Jamoatchilik fikri shakllanishining mexanizmlari. Jamoatchilik fikrining o'ziga xos xususiyatlari. O'zbekistonda jamoatchilik fikrini o'rganishning mexanizmlari. Nodavlat sotsiologik tashkilotlarning jamoatchilik fikrini o'rganishdagi roli. Jamoatchilik fikrini o'rganishning shakl va metodlari. OAV ning jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi o'rni. Jamoatchilik fikri tadqiqotlari natijalarini matematik	10	5,6	dots. M.B.Sherov

			modellashtirish, bashorat qilish va ulardan sotsial jarayonlarni boshqarishda foydalanish. Jamiyat hayotining barcha sohalarini demokratiyalashtirishda jamoatchilik fikrining ahamiyati. Jamoatchilik fikrining tadqiqotlarining empirik metodlari.			
1.26	SMM3004	Boshqaruv sotsiologiyasi	Boshqaruv sosiologiyasi o'quv kursi talabalarga aholi va mehnat jamoalarida olib borilayotgan sotsial xizmatning nazariy asoslari haqida bilimlarga ega qilishdan iborat. Ijtimoiy himoyaga muxtoj aholi qatlamlariga boshqaruv sosiologiyasi asoslarini tashkil qilish malakalarini singdirish, talabalarda yuqori darajadagi ma'naviy va insonparvarlik xususiyatlarni shakllantirish hamda ijtimoiy ziddiyatlarni bartaraf etishda zarur bilimlar bazasiga ega bo'lishlari kerak.	4	8	dots. M.B.Sherov
1.27	SDBM3007	Deviant xulq-atvor sosiologiyasi	Deviant xulq atvor sosiologiyasi o'quv kursi talabalarga jamiyatda o'rnatilgan ijtimoiy meyorlarning nazariy asoslari haqida bilimlarga ega qilishdan iborat. Ma'naviy va insonparvarlik xususiyatlarni shakllantirish hamda ijtimoiy ziddiyatlarni bartaraf etishda zarar bilimlar bazasiga ega bo'lishlari kerak.	7	7	dots. M.B.Sherov
1.28	SEM3006	Huquq sosiologiyasi	Huquq sosiologiyasi o'quv kursi talabalarga aholi va mehnat jamoalarida olib borilayotgan sotsial xizmatning nazariy asoslari haqida bilimlarga ega qilishdan iborat. Ijtimoiy himoyaga muxtoj aholi qatlamlariga huquq sosiologiyasi asoslarini tashkil qilish malakalarini singdirish, talabalarda yuqori darajadagi ma'naviy va insonparvarlik xususiyatlarni shakllantirish hamda ijtimoiy ziddiyatlarni bartaraf etishda zarar bilimlar bazasiga ega bo'lishlari kerak.	5	4	dots. G.Tagiyeva
1.29	ESRDSM3003	Raqamli jamiyatda empirik sotsiologik tadqiqotlar	Umumiy holatda raqamli jamiyatda empiric sotsiologik tadqiqotlar o'quv kursi talabalarga aholi va mehnat jamoalarida olib borilayotgan raqamli jamiyatda empiric sotsiologik tadqiqotlar va o'tkazish metodlari haqida bilimlarga ega qilishdan iborat. Ijtimoiy himoyaga muxtoj aholi qatlamlariga raqamli jamiyatda empiric sotsiologik tadqiqotlar tashkil qilish malakalarini singdirish, talabalarda yuqori darajadagi ma'naviy va insonparvarlik xususiyatlarni shakllantirish hamda ijtimoiy ziddiyatlarni bartaraf etishda zarar bilimlar bazasiga ega bo'lishlari kerak.	3	6	O'qit. O.E.Navro'zov

Tanlov fanlari						
2.01	EEPI1002	Ekologiya va atrof muhit muhofazasi	Biosfera va inson: biosfera, eko tizim tarkibi, organizm va muhit o'zaro ta'siri, ekologiya va inson salomatligi, atrof muhit bilan bog'liq global muammolar; tabiatdan oqilona foydalanish: tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va tabiatni muhofaza qilishning ekologik tamoyillari, tabiatdan foydalanishning iqtisodiy masalalari asoslari, ekohimoyalovchi texnika va texnologiya, ekologik huquq asoslari va kasbiy mas'uliyat, atrof muhit masalalarida xalqaro xamkorlik.	4	2	dots. T.Majidova
	EST4007	Etnosotsiologiya		7		O'qit. R.R.Qobilov
2.02	SST4007	Ijtimoiy xizmat	Ijtimoiy xizmat fanining ob'ekti va predmeti. Ijtimoiy xizmat tarixi. Ijtimoiy xizmatning shakllanish sharoitlari va asosiy yondoshuvlar. Ijtimoiy xizmat taraqqiyotining tarixiy ildizlari. Ijtimoiy xizmatning fanlar tizimidagi o'rni. Ijtimoiy xizmatning sotsiologik asoslari. Ijtimoiy xizmatning ijtimoiy-psixologik asoslari. Ijtimoiy xizmatning gender asoslari. Ijtimoiy xizmatning ijtimoiy siyosat bilan o'zaro munosabatlari va aloqalari. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy xizmatni olib borishning asosiy ustuvor yo'nalishlari. Ijtimoiy xizmat faoliyat turi sifatida. Ijtimoiy xizmat nazariyasi va metodologiyasi. Ijtimoiy menedjment. Ijtimoiy yordam xizmati ishini tashkil etish. Ijtimoiy xizmatning asosiy resurslari. Ijtimoiy xizmatning texnologiya va metodlari. Zamonaviy sharoitlarda dolzarb ijtimoiy xizmat turlari. Aholining ijtimoiy himoya tizimida ijtimoiy xizmatning o'rni. Aholining turli ijtimoiy guruhlari orasida ijtimoiy xizmat faoliyatini olib borish muammolari. Ijtimoiy xizmat va yoshlar. Ijtimoiy xizmat va ayollar. Ijtimoiy xizmat va keksa avlod. Ijtimoiy xizmat va imkoniyati cheklangan fuqarolar. Oila ijtimoiy xizmat ob'ekti sifatida. Ijtimoiy xizmat sermaxsulligini baholash mezonlari.		3	
		Shahar va qishloq sotsiologiyasi	Fanning o'qitish maqsadi shahar va qishloq sotsiologiyasi to'g'risida chuqur nazariy bilimlarni, shuningdek, shahar va qishloq rivojiga ta'sir etuvchi omillar to'g'risida bilim, ko'nikma va malakani shakillantirish	4		
2.03		Xalqaro munosabatlar	Xalqaro munosabatlarga oid asosiy ijtimoiy		4	Dots. M.Normamatova

		sotsiologiyasi	munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisi, uning fuqarolik jamiyati institutlari bilan munosabatlari tartibini, fuqaro va shaxs huquq hamda erkinliklari amalga oshirilishining asosiy tamoyillarini, davlat hokimiyati organlari tizimini belgilaydi.			
	HDT4006	Inson taraqqiyoti	Inson taraqqiyoti - asosiy ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisi, huquq tizimining yetakchi sohasi. Fuqaro va shaxs huquq hamda erkinliklari amalga oshirilishining asosiy tamoyillarini, davlat hokimiyati organlari tizimini belgilaydi.	6		Dots. I.Negmatov
2.04	SET4006	Tarbiya sotsiologiyasi	Talabalarda tarbiya sotsiologiyasiga oid asosiy sohalari va institutlari, munosabatlar tuzilishi va mazmuni, shuningdek norma va to'g'risida tasavvur va ichki ishonchi shakllantiriladi.		5	O'qit. R.R.Qobilov
	ASDUT4007	Sotsiologik ma'lumotlarni SPSS dasturi orqali tahlil qilish	Konkret sotsiologik tadqiqotlar bilan bog'liqligi. Statistik kuzatuv. Statistik ma'lumotlarni guruhlash va uni muammolar tahlilidagi ahamiyati. Absolyut, nisbiy va o'rta ko'rsatkichlar. Statistik taqsimotlar va ularning asosiy xarakteristikasi. Saralangan kuzatuvlar. Korrelyasion bog'liqlik va uni statistik tahlili. Dinamika qatorlari. Indekslar va ulardan sotsial-iqtisodiy tadqiqotlarda foydalanish usullari. Zamonaviy O'zbekistonda sotsial statistika istiqbollari.	6		O'qit. O.E.Navro'zov
2.05	SPT4007	Ijtimoiy siyosat	Ijtimoiy siyosat muammolari; ijtimoiy rivojlanishda muammolar va ijtimoiy boshqaruv; davlatchilikda ijtimoiy tushunchalar; ijtimoiy siyosat tipologiyasi haqida tushuncha; aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimining rivojlanish bosqichlari; ijtimoiy siyosat va ijtimoiy ishning o'zaro aloqadorligini, O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatning asosiy tamoyillarini; ijtimoiy siyosat sohasida amalga oshirilayotgan davlat ijtimoiy dasturlarini; O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy siyosatida maqsadli ijtimoiy ko'mak konsepsiyasini; rivojlangan xorijiy davlatlarda amalda bo'lgan ijtimoiy siyosatning tavsifi; O'zbekiston va xorijiy mamlakatlarda olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning zamonaviy bosqichlariga tasnif; manzilli ijtimoiy yordam ko'rsatishning konsepsiyasi; aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimining rivojlanish bosqichlari; kasbiy faoliyatni turlari korporativ boshqaruvi va h.kazolar.		6	Dots. I.Negmatov


	SRT4007	Din sotsiologiyasi	Din sotsiologiyasi ob'ekti, predmeti va funksiyalari. Dinning sotsial funksiyalari. Din sotsiologiyasi sotsiologiya fanining tarmoq yo'nalishi. Din sotsiologiyasi fanining shakllanishi va rivojlanishining asosiy bosqichlari. Din muhim sotsial fenomen. Jahon dinlari va ularning evolyusiyasi. Dinning sotsiologik nazariyasi. Din va jamiyat. Din va siyosiy tizim. Dinning ijtimoiy hayotdagi mohiyati va ahamiyati.	6		O'qit. M.Tangirova
2.06	ECST4007	Iqtisodiy sotsiologiya	Iqtisodiy sotsiologiya umumiy sotsiologiyaning tarmoq yo'nalishi. Iqtisodiy sotsiologiya ob'ekti va predmeti. Iqtisodiy sotsiologiya metodologiyasi. Iqtisodiy sotsiologiya rivojining asosiy davrlari va ularning xususiyatlari. Jamiyat sotsial strukturasi shakllanishiga iqtisodiy omilning ta'siri. Sotsial-iqtisodiy faoliyat qonunlari. Iqtisodiy ong va uning mohiyati. Sotsial-iqtisodiy tafakkurning stereotiplari ijtimoiy o'zgarishlarining omili sifatida. Iqtisodiy madaniyat. Iqtisodiy hulq-atvor. Insonning sotsial harakati va iqtisodiy hulq-atvorining tizimi. SHaxsning ijtimoiylashuviga sotsial-iqtisodiy sharoitlarning ta'siri. Sotsial guruhlar va shaxs iqtisod rivojining sub'ektlari sifatida. Iqtisodiy manfaatlar va munosabatlar.		7	Prof. M.Bekmurodov
	STST4004	Tafakkur tarsi sotsiologiyasi	Tafakkur tarzi sotsiologiyasi ob'ekti, predmeti va funksiyalari. Tafakkur tarzi sotsiologiyasi maxsus yo'nalishining umumiy sotsiologiya strukturadagi o'rni. Fan tarixida tafakkur muammosiga turlicha yondoshuvlar. Tafakkur jarayonlarining falsafiy, psixologik, siyosiy, huquqiy va sotsiologik jihatlar. Tafakkur tarzi sotsiologik kategoriya sifatida. Tafakkur tarzi kategoriyasining strukturasi va uning tarkibiy elementlari. Interpretatsion faoliyat tafakkur tarzi kategoriyasining bazis elementi sifatida.	3		O'qit. R.R.Qobilov
2.07	PST4004	Siyosiy sotsiologiya	Siyosiy sotsiologiya umumiy sotsiologiya fanining muhim tarmoq yo'nalishi. Siyosiy sotsiologiyaning predmeti, ob'ekti va funksiyalari. Siyosiy sotsiologiya shakllanishining tarixi. Siyosiy sotsiologiyaning metodlari. Jamiyatning siyosiy hayoti. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning mohiyati va determinatsiya tizimi. Siyosiy sotsiologiyaning		8	Dots. M.Normamatova

		<p>konsepsiyasi i tushunchalar apparati. Sotsiologiya hokimiyat va hokimiyat munosabatlari to'g'risida. Siyosiy hokimiyat turlari haqida sotsiologiya klassiklarining ta'limotlari. Siyosiy jarayonlarning ishtirokchilari. Siyosiy ong va tafakkur. Siyosiy madaniyat. Siyosiy ijtimoiylashuv. Siyosiy dinamika. Siyosiy tizim. Iqtisodiy siyosat. Ijtimoiy siyosat. Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy siyosati. Ijtimoiy-siyosiy hayotda mafkuraning ahamiyati. Sotsial-demografik siyosat. Davlat tuzimi va davlat siyosati. Siyosiy jarayonlar va sotsial institutlar. Ularning o'zaro munosabatlari va aloqalari.</p>			
--	--	---	--	--	--

“Kelishildi”

O'quv-uslubiy boshqarma
boshlig'i:

B.S. Anikulo
M.O'.



Fakultet dekani:

Sh.Sh.Negmatova

